

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

RUZIBOYEV TOLIBJON XOLMATJONOVICH

**TAXMIS GENEZISI, TADRIJI, JANR XUSUSIYATLARI
VA POETIKASI (ALISHER NAVOIY AN'ANALARI ASOSIDA)**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
philological sciences**

Ruziboyev Tolibjon Xolmatjonovich

Tahmis genezisi, tadriji, janr xususiyatlari va poetikasi
(Alisher Navoiy an‘analari asosida) 3

Рузибоев Толибжон Холматжонович

Генезис, эволюция, жанровые особенности и поэтика тахмиса
(На основе традиций Алишера Навои) 23

Ruziboev Tolibjon Kholmatjonovich

Genesis, evolution, genre features and poetics of tahmis
(Based on the traditions of Alisher Navoi) 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 49

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

RUZIBOYEV TOLIBJON XOLMATJONOVICH

**TAXMIS GENEZISI, TADRIJI, JANR XUSUSIYATLARI
VA POETIKASI (ALISHER NAVOIY AN'ANALARI ASOSIDA)**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2021.1.PhD/Fil1579-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan viloyati Namangan davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb-sahifaning www.tai.uz hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portali www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Djurayev Xabibullo Abdusalomovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ismoilov Ilyos Abduqayumovich
filologiya fanlari doktori (DSc)

Olimov Sultonmurod Hoshimovich
filologiya fanlari nomzodi

Yetakchi tashkilot:

Qo‘qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “___” _____soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160107, Namangan sh., Boburshoh ko‘chasi, 161-uy. Tel.: (998-69) 228-85-01, Faks: 228-85-02. Web-sayt: www.namdu.uz, e-mail: info@namdu.uz.)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko‘chasi, 316-uy. Tel.: (99869) 227-29-81).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “___” _____kuni tarqatildi.
(2023-yil “___” _____dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi).

N.M.Uluqov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor.

I.O‘.Darveshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

M.Y.Sulaymonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyoti, xususan, Sharq adabiyoti tarixida musammat turkumiga kiruvchi she'riy janrlar, shu jumladan, muxammas va taxmislar va ularni adabiyotshunoslik ob'yekti sifatida o'rganish muhim o'rin tutmoqda. Adabiyotshunoslik manbalarida qayd etilishicha, musammatlar IX – X asrlarda Andalusiyadagi arab tilli (arab-ispn) adabiyotda vujudga kelib, keyingi davrlar adabiyoti ravnaqida juda katta ahamiyat kasb etdi va adabiy aloqalar, adabiy ta'sir natijasida Sharq xalqlari, jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotida ham keng tarqalgan, bu an'ana bugungi kunda ham davom etmoqda. Binobarin, ularni alohida adabiy-estetik hodisa sifatida o'rganishga e'tibor ortmoqda. Musammatlar jahon xalqlari orasida adabiy ta'sir va adabiy aloqalarga oid muammolarni o'rganishda juda katta adabiy manba sifatida e'tirof etilmoqda. Ularni har bir xalq adabiyotiga xos adabiy ta'sir, adabiy aloqalar, adabiy-estetik qarashlar, turli davr va ruhiyat muammolari aks ettirilishi, ijodiy individuallik, o'ziga xoslik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tahlili asosida talqin etish muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida muxammas va taxmislar maxsus ilmiy muammo sifatida o'rganilishi, asosan, XX asr oxirlari va XXI asr boshlariga to'g'ri keladi. Taxmisnavislik asosan Sharq xalqlari adabiyotida keng tarqalgan bo'lib, bu badiiy-estetik hodisaning dunyo adabiyotshunosligi miqyosida o'rganilishida asosan Sharq adabiyotshunos olimlari yetakchilik qilmoqda. Olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda ularning kelib chiqishi, shakliy tuzilishi, taxmisnavislikka oid ayrim masalalar adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan talqin etilmoqda. Mazkur yo'nalishda taxmislar genezisi, tadriji, janr xususiyatlari va poetikasi masalarini atroflicha yoritib berish, har bir ijodkorning individual mahoratini yoritish, voqelikka munosabati asosidagi biografik, ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash dolzarblik kasb etmoqda. Bu muammolar o'rni va ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan zamonaviy jahon adabiyotshunosligi erishgan eng yangi tamoyillar va yondashuvlar asosida o'rganish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotida inson ruhiy olamini tahlil etish, asarlarda uning davr muammolariga munosabati yoritilishiga e'tibor, voqelikni badiiy ifodalash masalarini zamonaviy yondashuvlar asosida ilmiy-nazariy jihatdan to'g'ri baholash va asoslash muhim vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. "...Boy tarixiy, ilmiy, ma'naviy-intellektual merosimizni saqlash, ilmiy tahlil qilish, uning mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida soha mutaxassislariga, tegishli ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan o'quvchi va talabalarga batafsil ma'lumot berib borish, buyuk alloma va mutafakkirlarimiz asarlarini dunyo hamjamiyati o'rtasida keng targ'ib etish, zamonaviy ilm-fan, ma'naviyat va amaliyot rivojida undan samarali foydalanish va kelgusi avlodlarga yetkazish"¹ juda muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Zero, jamiyat hayotida

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майдаги “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2995-сонли Қарори. // «Халқ сўзи» газетаси. 2017 йил 25 майдаги 103 (6797)-сон.

yuz berayotgan voqea-hodisalar ijodkor ruhiyatida in'ikoslanib, tafakkurida qayta ishlanib, badiiy asar sifatida voqelanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4958-son, 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzuidagi xalqaro konferensiyani o'tkazish to'g'risida"gi Farmoyishi, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "O'zbek adabiyoti" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi, Dunyo adabiyotshunosligida Nihad Sami Banarli, S.Iskandarova, I.G.Zubairova, D.R.Hakimov² kabilar olib borgan tadqiqotlari tarkibida ham muxammas, taxmis janrlari haqida ayrim ilmiy-nazariy qarashlar bayon etilgan. Jumladan D.R.Hakimov XII – XIX asrlar fors-tojik adabiyotida muxammas janrining shakllanishini tadqiq etgan.

O'zbek adabiyotshunosligida ham musammatlar, shu jumladan muxammas va taxmis janri bilan bog'liq muammolar tahliliga bag'ishlangan ayrim tadqiqotlar mavjud bo'lib, ularda Navoiy taxmisleri yoki shoir g'azallariga bog'langan taxmislar haqida ham ayrim fikr-mulohazalar aytib o'tilgan. Bu borada A.Hayitmetov, Y.Is'hoqov, O.Nosirov, S.Jamolov, M.Ziyovutdinov, A.Abdug'afurov, R.Orzibekov, S.G'anieva, N.Afoqova, D.Salohiy, D.Yusupova, G.Xallieva, G.Saidg'anieva kabi adabiyotshunoslar ishlarini ko'rsatib o'tish mumkin.³

² Banarli Nihad Sami. Resimli türk edebiyati târihi. I – II. – Istanbul: Milli eđitim basimevi, 1983; Iskandarova S.A. Эволюция метрического и силлабического стихосложения в башкирской поэзии начала XX века. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Уфа, 2013. – 24 с.; Литературоведческая терминология в башкирском языке. Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Уфа: Башкирский государственный университет, 2016. – 342 с. Хакимов Д.Р. Формирование жанра мухаммас в персидско-таджикской литературе XII – XIX вв. Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Душанбе. 2017. – 208 с.

³ Каранг: Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Тошкент: O'zbekiston, 2015. – Б. 76-79; Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: ФАН, 1983; Носиров А., Жамолов С., Зиёвутдинов М. Ўзбек классик шеърляти жанрлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 113-120; Абдуғафуров Абдурашид. Буюк бешлик сабоқлари.

Ta'kidlash lozimki, o'zbek adabiyotshunosligida bu muammo monografik tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning maqsadi: o'zbek adabiyotida, xususan, Alisher Navoiy ijodida taxmis janrining shakllanishi, rivojlanishi, poetikasini tadqiq etish, janriy belgilarini aniqlash va umumlashtirish hamda adabiy jarayon taraqqiyotida tutgan o'rniga baho berish orqali turli davr ijodkorlari asarlaridagi eng xarakterli qirralarini topish va asoslashga qaratildi.

Tadqiqotning vazifalari:

jahon va o'zbek mumtoz adabiyotida taxmis janrining vujudga kelishi va tarixiy taraqqiyot bosqichlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash;

o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotida mazkur janrning tutgan o'rni, so'z san'ati ravnaqidagi hissasi haqidagi muayyan ilmiy-nazariy qarashlarni umumlashtirish va yangi nazariy ma'lumotlar bilan boyitish;

taxmisning o'ziga xos janr xususiyatlarini aniqlash va musammatning boshqa turlaridan farqlovchi asosiy belgilarini topib umumlashtirish;

taxmisning shakliy-mazmuniy turlarini aniqlash hamda ularni tasniflash;

xalq og'zaki ijodi namunalari, yozma adabiyot namoyandalari, xususan, Alisher Navoiy va o'zbek adabiyotining boshqa vakillari ijodi misolida mazkur janr genezisi hamda poetikasini yoritish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Alisher Navoiyning o'z g'azallariga hamda Lutfiy va Husayniy g'azallariga taxmislari olindi. Shuningdek, o'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalari: Husayniy, Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy, Zokirjon Furqat, Muhammad Yusuf Muhammad Yoqub o'g'li Chokar, Miriy, Roqim; zamonaviy o'zbek adabiyoti vakillari: Bokiy, G'afur G'ulom, Erkin Vohidov, Omon Muxtor, To'lan Nizom, Omon Matjon, Porso Hoshim, Abdulla A'zam, Ismoil Mahmud, Bobur Bobomurodov kabi ijodkorlarning Alisher Navoiy g'azallariga taxmislari tahlilga tortildi.

Tadqiqotning predmetini Alisher Navoiy taxmislari, o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotidagi taxmisnavislik an'analari hamda taxmislar poetikasini bugungi o'zbek adabiyotshunosligi nuqtai nazaridan tadqiq qilish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, germenevtika tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek mumtoz va zamonaviy she'riyatida muxammas va taxmis janrining keng tarqalish sabablari, omillari, vositalari, mustaqil janr sifatida shakllanishi, takomillashuvi va rivojlanish taraqqiyotining tarixiy-tadrijiy tizimi va bosqichlari, o'zbek mumtoz adabiyoti janrlari ichida alohida tutgan o'rni ochib berilgan;

– Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1995. – Б. 113-121; Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006; Fаниева С. Лутфий ва Навоий шеърляти: классикларимиз ижодида анъана. Шарқ классик филологияси илк тўплам. – Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2009. – Б. 63. Fаниева С. Мавлоно Лутфий Навоий нигоҳида. // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2010. 5-сон; Афоқова Н. Жадид лирикасида мусаммат. – Тошкент: ФАН, 2005. – Б. 6-15; Салоҳий Д. Навоий назмиёти. – Самарқанд // Зарафшон, 2013; Юсупова Д. Алишер Навоий тахмислари. // Шарқ юлдузи, 2013, 2-сон. – В. 143; Халлиева Г. Огаҳий мусамматлари. Монография. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2019; Saidganieva G. The development of classical poetical genres in Kokand literary environment. //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com>. Vol.10, Issue 9, Sept 2020, Spl Issue, – P. 14-16.

muxammas va taxmisning kelib chiqish genezisi, shakliy tuzilishi, soʻz sanʼati darajasiga koʻtarilishidagi asosiy lisoniy belgilari, uning voqelikka munosabati asosidagi biografik, ijtimoiy-psixologik omillar orqali badiiy adabiyotda voqelanuvchi oʻziga xosligi, mushtarak jihatlari va farqli tomonlari koʻrsatib berilgan;

mustaqil muxammas va taxmis janrining oʻz tarixiy taraqqiyot bosqichlarida har bir davr Sharq va oʻzbek adabiyotidagi shakliy-mazmuniy yangilanishlari, gʻoyaviy oʻzgarishlarining zamon va makonga xos har bir shoirning individual ijod mahsuli sifatida uning tazmin, tashtir, tardiya, tazmini muxammas kabi janrlarining vujudga kelganligi misollarni tahlilga tortish orqali dalillangan;

Alisher Navoiy taxmislari badiiy-tafakkuriy genezisi, ularda aks etgan har bir ijodkorning individual yondashuvli badiiy mahoratining poetik xususiyatlari Sharq, xususan, oʻzbek yozma adabiyoti hamda xalq ogʻzaki ijodi namunalari bilan solishtirgan va taqqoslangan holda asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Muxammas va taxmisning Sharq, xususan, oʻzbek yozma adabiyoti hamda xalq ogʻzaki ijodi namunalari bilan taqqoslanishi, Alisher Navoiy taxmislari misolida puxta badiiy-estetik hodisa sifatida soʻz sanʼatining bir koʻrinishi boʻlib takomillashuvi, tanlangan misollarning tasniflab chiqilgani, ularning kompleks tadqiq etilishi navoiyshunoslik, mumtoz va zamonaviy oʻzbek adabiyotining muayyan qirralarini toʻldirishga xizmat qilishi, shoirlarning oʻziga xos uslubini belgilash, badiiy mahoratini yoritishdagi har bir janrning, gʻoyasini oʻrganishda tayyor manba boʻlib xizmat qilishi bilan asoslangan.

Ish yuzasidan toʻplangan materiallar, ular boʻyicha chiqarilgan fikr-mulohazalarning toʻxtam va xulosalari oʻzbek mumtoz adabiyoti muammolari, jumladan, Alisher Navoiy, boshqa oʻzbek mumtoz va zamonaviy adabiyoti vakillari ijodi boʻyicha tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar, oliy oʻquv yurtlarining professor-oʻqituvchi va talabalariga yangi ilmiy-amaliy maʼlumotlar berishi, qolaversa, Sharq mumtoz badiiyatini amaliy jihatdan oʻrganish va oʻrgatishda, adabiy-badiiy asarlarning maydonga kelishida, Alisher Navoiy va oʻzbek mumtoz sheʼriyatiga taalluqli yangi badiiy-izohli lugʻatlar tuzish uchun asos va manba sifatida xizmat qilishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning toʻgʻri qoʻyilganligi, ilmiy muammoning oʻrganilish chegaralarining aniq belgilanganligi, chiqarilgan xulosalar ilmiy asoslanganligi, tahlillar qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy, struktural-poetik, avtobiografik tavsiflash va tasniflash vositasida olib borilganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, tahlil jarayonida oʻzbek mumtoz va zamonaviy adabiyoti tabiatidan kelib chiqilganligi, natijalarning vakolatli muassasalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijalari, ilmiy xulosalari nafaqat Alisher Navoiy ijodi, balki davrlar osha oʻzbek badiiy tafakkuri va badiiy-falsafiy, ijtimoiy-psixologik fikrlash tarzida yuz bergan oʻzgarishlar haqidagi bilimlarni toʻldirishi, kengaytirishi, oʻzbek adabiyotida taxmis janrining shakliy-mazmuniy yangilanishlari haqidagi qarashlar adabiyotshunoslik nazariyasi, adabiy tanqid

tarixi, o‘zbek adabiyoti tarixi fanlarining nazariy jihatdan takomillashuviga xizmat qilishi, mumtoz va zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligida Alisher Navoiy taxmislarning haligacha to‘liq o‘rganilmaganligi hisobga olinganligi, o‘zbek va jahon zamonaviy adabiyotshunosligidagi nazariy qarashlarga tayanilgani bilan izohlanadi.

Alisher Navoiy taxmislari va ularda qo‘llanilgan timsollar tizimi, shoirning bu borada an‘anaviylik bilan bir qatorda individual izlanishlari, erishgan imkoniyatlari, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, mumtoz va zamonaviy o‘zbek adabiyoti vakillarining taxmislarda ishlatilgan badiiy-tasviriy vositalari “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Adabiyot nazariyasi” “Mumtoz poetika”, “Navoiyshunoslik” kabi fanlarni o‘qitishda, maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda, maxsus o‘quv yurtlari, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari uchun darslik va qo‘llanmalar yaratishda, mumtoz she‘riyat bo‘yicha ilmiy izlanishlarga shakliy-uslubiy manba bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Alisher Navoiy an‘analari asosidagi taxmis genezisi, tadriji, janr xususiyatlari va poetikasi mavzu doirasi va badiiy xususiyatlarini tadqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Navoiy taxmislari badiiy-tafakkuriy genezisi, ularda aks etgan har bir ijodkorning individual yondashuvli badiiy mahoratining poetik xususiyatlari Sharq, xususan, o‘zbek yozma adabiyoti hamda xalq og‘zaki ijodi namunalar bilan solishtirgan va taqqoslangan holda asoslangan fikr va xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining P3-20170926459 raqamli “Navoiyshunoslik tarixi (XX-XXI asrlar)” mavzusidagi loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 19-fevraldagi 01/4-30-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada loyihada Alisher Navoiy taxmislari va ularning keyingi davrlar o‘zbek adabiyotiga ta‘siri, taxmisnavislik an‘analari haqidagi ma‘lumotlar yangi ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitilgan;

o‘zbek mumtoz va zamonaviy she‘riyatida muxammas va taxmis janrining keng tarqalish sabablari, omillari, vositalari, mustaqil janr sifatida shakllanishi, takomillashuvi va rivojlanish taraqqiyotining tarixiy-tadrijiy tizimi va bosqichlari, o‘zbek mumtoz adabiyoti janrlari ichida alohida tutgan o‘rni ochib berilgan fikrlarning to‘xtam va xulosalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining OT-F1-030 raqamli “O‘zbek adabiyoti tarixi” ko‘p jildlik monografiyasi 7 jildligini chop etish” mavzusidagi loyihasida, foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 19-fevraldagi 01/4-309-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada monografiyaning A.Navoiy ijodiga taalluqli boblari shoir ijodida taxmisnavislik an‘anasining vujudga kelishi va taxmislar poetikasiga oid ilmiy-nazariy xulosalar bilan boyitilgan;

muxammas va taxmisning kelib chiqish genezisi, shakliy tuzilishi, so‘z san‘ati darajasiga ko‘tarilishidagi asosiy lisoniy belgilari, uning voqelikka munosabati asosidagi biografik, ijtimoiy-psixologik omillar orqali badiiy adabiyotda voqelanuvchi o‘ziga xosligi, mushtarak jihatlari va farqli tomonlari ko‘rsatib berilgan fikr va chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalardan o‘zbek mumtoz va

zamonaviy adabiyotining Alisher Navoiy, Muhammadrizo Ogahiy, Zokirjon Furqat, Gʻafur Gʻulom, Erkin Vohidov kabi taniqli namoyandalari ijodini targʻib etishga qaratilgan maʼnaviy-maʼrifiy targʻibot tadbirlarida foydalanilgan (Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat kengashi Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazining 2022-yil 24-yanvardagi 01/01/6-sonli maʼlumotnomasi). Natijada oʻtkazilgan maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlarning taʼsirchanligi sezilarli darajada ortgan, badiiy adabiyotning jamiyat hayotida tutgan oʻrni, taniqli ijodkorlar va ularning bizga qoldirgan ulkan maʼnaviy merosini oʻrganish, targʻib qilish imkoniyatlari kengaygan;

Navoiy taxmislari badiiy-tafakkuriy genezisi, ularda aks etgan har bir ijodkorning individual yondashuvli badiiy mahoratining poetik xususiyatlari Sharq, xususan, oʻzbek yozma adabiyoti hamda xalq ogʻzaki ijodi namunalar bilan solishtirgan va taqqoslangan holda asoslanib, chiqarilgan tahliliy xulosalardan Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Oʻzbekiston” teleradiokanali 2020-2021-yillarda eʼfira uzatilgan “Bedorlik”, “Taʼlim va taraqqiyot”, “Adabiy jarayon” eshittirishlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Oʻzbekiston” teleradiokanali rahbariyatining 2022-yil 21-yanvardagi 04-36-13-son maʼlumotnomasi). Natijada taxmislar matnlarining badiiy-estetik, maʼnaviy-maʼrifiy hamda tarbiyaviy-axloqiy xususiyatlari orqali kishilarni badiiy adabiyotga mehr-u muhabbat, ajdodlar merosiga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning emotsional-estetik his-tuygʻularni uygʻotish, kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan ilmiy tahlillari bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 2 ta respublika 4 ta xalqaro konferensiyalarida maʼruza koʻrinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha 1 ta monografiya, 17 ta ilmiy ish, jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan, 4 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob (olti paragraf), xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati hamda ilovalardan iborat boʻlib, ishning umumiy hajmi 131 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zaruratiga asoslangan holda tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmeti va obʼekti aniqlangan. Tadqiqotning Oʻzbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan va uning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchligi asoslangan holda ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, tadqiqotning tuzilishi va hajmi koʻrsatilgan.

Dissertatsiyaning “O‘zbek adabiyotida mustaqil muxammas va taxmis” deb nomlangan birinchi bobi 2 paragrafdan iborat. Birinchi paragrafda “Genezis masalalari” ilmiy muammo sifatida tahlil etiladi.

Mustaqil muxammas va taxmis o‘zbek mumtoz hamda zamonaviy adabiyotining keng tarqalgan she‘riy janrlaridan biridir. Ilmiy manbalarga qaraganda, bu janrlar o‘zbek yozma adabiyotida XIV–XV asrlar oralig‘ida shakllangan va keyingi davrlarda ancha keng tarqalgan. XX asr boshlariga kelib o‘zbek she‘riyatida aruz o‘rnini barmoq va erkin vaznlar egallay boshladi. Shu munosabat bilan bu davrda aruzda ijod qilish sezilarli darajada kamayib, o‘rniga barmoq vaznida shaklan ba‘zi janrlar, jumladan, muxammasni eslatuvchi she‘rlar paydo bo‘ldi.

Mustaqil muxammas va taxmislar ham boshqa mumtoz she‘riy janrlar kabi juda uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichini boshidan kechirgan. Har qanday badiiy-estetik hodisaga xos xususiyatlar kelib chiqish tarixi nomlanishida ham aks etadi. Shuning uchun muxammas va taxmis janrlari genezisini aniqlashda ham dastlab ularni ifodalovchi atamalar haqida fikr yuritish zarur. Bir qator ilmiy manbalarda har bir bandi besh misradan iborat bo‘lgan she‘rga nisbatan muxammas atamasi qo‘llangan. Muxammas arabcha (مخمس)dan olingan bo‘lib, beshlik bandli she‘riy janrlarni shakliy tomondan birlashtiradi va musammat turkumiga kiruvchi she‘riy janrlarning bir turi sifatida talqin etiladi. Jumladan, Shayx Ahmad Taroziy “Funun-ul balog‘a” asarining “Al-nav‘u-s-sobeun fil bayonu-l-musammat” bobida shunday deyilgan: “Musammati muxammas besh misra‘ bo‘lur. To‘rt misra‘ning oxirinda saj‘ qilib beshinchi misra‘da asl qofiyaga ruju qilurlar”.⁴

Alisher Navoiy «Majolis un-nafois» tazkirasida “Mavlono Muhammad Tabodgoniy (804 (1401–1402) – 891/1482–83) arab shoiri Ka‘b Ibni Zuxayrning (VII asr) asari «Qasidai Burda»ni muxammas qilibdurur» desa, yana bir o‘rinda «Shayx Kamoli Turbatiy – ko‘p diqqatlik, tab‘lik kishi erdi. Xoja Hofiz g‘azallaridin ko‘p muxammas qilibdur»,⁵ shuningdek, shoir “Badoe‘ ul-bidoya” devoni debochasida o‘z she‘riyati janrlarini sanab o‘tar ekan taxmisleri haqida “ruhafzo muxammaslar”⁶ deya ma‘lumot beradi. XX asr boshlarida Abdurauf Fitrat ham muxammas va taxmis atamalarini aralash ishlatadi hamda muxammas janri haqida so‘z yuritib, Husayniyning Navoiy g‘azaliga taxmisidan ikki bandini misol keltiradi.⁷ Adabiyotshunos Yoqubjon Ishoqov ham shunday fikr bildiradi. Shuningdek u beshlik bandli she‘rlarning muxammas-qasida, muxammas-muvashshah, mulamma‘-muxammas, taxmis-mustazod kabi turlariga ham to‘xtaladi.⁸

O‘zbek adabiyotshunosligiga oid yana bir qator ilmiy manbalar va lug‘atlarda muxammas musammat turkumiga mansub janr nomi sifatida e‘tirof etiladi.⁹

⁴ Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға // Ўзбек тили ва адабиёти – 2002, 2-сон. – Б. 84.

⁵ Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 20 жилдлик. 13-жилд. – Тошкент: Фан, 1997, www.ziyouz.com kutubxonasi – Б. 35.

⁶ Алишер Навоий. Бадоеъ ул-бидоя. МАТ. 20 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1987, www.ziyouz.com kutubxonasi – Б. 20.

⁷ Абдурауф Фитрат. Адабиёт қондалари. Танланган асарлар 5 жилдлик. 4-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б. 42.

⁸ Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2014. – Б.б. 101-128.

⁹ Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б. 222

“O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”da ham aynan shunday talqin berilgan.¹⁰ “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da muxammas – arabcha geometrik shakl ma‘nosidagi “besh burchakli”, “beshlik”, “beshtalik” ma‘nolarini anglatishi, shuningdek, mumtoz she‘riyat namunasi ham ekanligi qayd etilgan¹¹. Bu atama tojik tilidagi ayrim manbalarda ham “beshlik” (панҷгона) nomi bilan yuritiladi va har bir bandi besh misradan iborat she‘r ekanligi aytiladi.¹² Shuningdek, “Фарҳанги забони тоҷики”da ham “beshlik” (панҷгона), besh burchak (панҷгўша), besh yonli (панҷпахлў) ma‘nolari bilan izohlangan¹³. Arabiy manbalarda muxammas atamasi geometrik shakl tushunchasini anglatib, “besh rukndan iborat bo‘lgan shakl”, “beshta teng tomondan iborat bo‘lgan geometrik shakl”, shuningdek, “og‘irlik ko‘taruvchi moslama” kabi ma‘nolarni ham anglatishi ta‘kidlanadi¹⁴. Rus adabiyotshunosligi manbalarida muxammas (taxmis) arab tilidan “beshlangan” (“упятеронный”) deb tarjima qilingan.¹⁵ Adabiyotshunos D.Yusupova ham taxmis g‘azalni beshlantirish asosida yaratilishini ta‘kidlaydi.¹⁶ Turk adabiyotshunosligiga doir ayrim manbalarda ham muxammas har bir bandi besh misradan iborat she‘r sifatida talqin etilsa, taxmis: “Sözlük anlamı “beşleme, beşli duruma getirme”dir”¹⁷ (“beshlantirish”, “besh misraliga keltirish”) , – deyiladi. Tojik adabiyotshunosligida taxmis – “шеъри мухаммас соҳтан” (muxammas shaklidagi she‘r tuzish) sifatida izohlanadi¹⁸. Arab tilidagi lug‘atlarda *التخميس* (at-taxmis) – “shoirning boshqa shoirning baytiga uch satr qo‘shsa, satrlar sonining besh satrga aylanib qolishi” ma‘nosida ishlatilishi aytiladi.¹⁹

Adabiyotshunos Anvar Hojiahmedov muxammaslarni shakliiy xususiyatlariga ko‘ra: *muzdavij muxammas va mutakarrir muxammas* kabi ikki turga ajratadi.²⁰ Olim bu o‘rinda ularni taxmis va mustaqil muxammas kabi turlarga ajratmaydi hamda o‘zbek adabiyotida birinchi shakldagi muxammas turi ko‘p uchrashini qayd etadi. Turk adabiyotshunosi Nihad Sami Banarli muxammas besh misrali bandlarda aytiladigan nazm shakli ekanligini va shaklan yuqoridagi kabi nomlanishini ta‘kidlaydi va ikkinchi tur muxammaslar turk adabiyotida murabba‘ shaklida vujudga kelgan *sharqi* janriga o‘xshashligini ta‘kidlab, Fatih Sultan Mehmedning Avni taxallusi bilan ijod qilgan “ko‘ngil” radifli nazira muxammasidan misol keltiradi²¹. Shuningdek, u baytning oldiga uch misra orttilsa, *taxmis* deb ataluvchi janr vujudga kelishini ta‘kidlaydi.

¹⁰ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. М ҳарфи. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, www.ziyouz.com kutubxonasi. – Б. 882.

¹¹ Ўзбек тилининг изохли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 656.

¹² Воҳидов А. (мураттиб) Калима ва маънои он. – Самарқанд, 2019. – С. 76.

¹³ Фарҳанги забони тоҷики. Иборат аз ду ҷилд. Ҷилди I – Москва: Советская энциклопедия, 1969. – Саҳ. 781

¹⁴ جبران مسعود. الرائد. معجم لغوي عصري. – بيروت- لبنان، دار العلم للماين، ١٩٩٢. – ص. ٧٧٢.

¹⁵ Большая Советская Энциклопедия. <https://dic.academic.ru/dic.nsf/bse111639/Мухаммас>

¹⁶ Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Алишер Навоий даври). – Тошкент: Тамаддун, 2016. – Б. 53.

¹⁷ <http://www.mehmeteminturkyilmaz.com.tr/i/2011/divan-siirinde-kullanilan-nazim-sekilleri-ve-turleri/>

¹⁸ Фарҳанги забони тоҷики. Иборат аз ду ҷилд. Ҷилди II. – Москва: Советская энциклопедия, 1969. – Саҳ. 342.

¹⁹ جبران مسعود. الرائد. معجم لغوي عصري. – بيروت- لبنان، دار العلم للماين، ١٩٩٢. – ص. ١٢.

²⁰ Ҳоҷиаҳмедов А. Мумтоз бадиият луғати. Адабий жанрлар, шеър санъатлари, аруз ва кофия. – Тошкент: Янги аср, 2008. – Б. 75.

²¹ Banarlı Nihad Sâmî. Resimli türk edebiyâtî târihi. I. – Istanbul: Milli eğitîm basîmevî, 1983. – B. 208.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi “**Janrning nazariy asoslari**” deb nomlanadi va unda o‘zbek mumtoz hamda zamonaviy she‘riyati namunalari asosida mustaqil muxammas va taxmisning o‘zaro mushataraklik hamda farqlanuvchi jihatlari tahlilga tortiladi.

Har qanday she‘riy janr o‘ziga xos muayyan nazariy qoidalar asosida shakllanadi va rivojlanadi. Mustaqil muxammas va taxmislarning tarixiy shakllanish jarayonida ham mumtoz she‘riyatga xos ayrim nazariy qoidalar o‘zlashtirildi. Ko‘plab ilmiy va adabiy manbalarda ularga bir xil she‘riy janr sifatida qarash va nomlash odat tusiga kirgan. Shaklan olib qaralganda, bunday qarashlarda xato yo‘q, chunki mustaqil muxammas ham, taxmis ham musammat turkumiga kiruvchi har bir bandi besh misradan iborat, qofiyalanish tizimida ham o‘zaro farq qilmaydigan she‘riy janrlar. Ammo faqat shakliy ko‘rinishi nuqtai nazardan baho berilsa, taxmisning yuzaga kelish sabablari va o‘ziga xos nazariy asoslarini o‘rganish keraksizday tuyuladi va tadqiqotlardan chetga surilib qoladi. Shuning uchun mazkur paragrafda mustaqil muxammas va taxmisga xos adabiy-nazariy tushunchalarni badiiy-ilmiy hodisa sifatida alohida-alohida olib o‘rganish, ularning o‘zaro mushtarak va farqlanuvchi jihatlarni aniqlandi hamda shu asosda har birining janr chegarasiga xos xususiyatlari talqin etildi.

Yozma adabiyot an‘analariga ko‘ra muxammas faqat aruzda yoziladi. Lekin alohida bahr yoki vazn talab qilinmaydi. O‘zbek adabiyotida Hofiz Xorazmiy qalamiga mansub dastlabki muxammas to‘qqiz bandli bo‘lib, aruzning *hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf* (maf‘ulu mafoiyly mafoiyly faulun) vaznida yozilgan.²² Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asarida muxammas uchun misol keltirilgan har ikki band ham shu vaznda yozilgan.²³ Ammo bu vazn muxammas uchun xoslanib qolmagan.

Mustaqil muxammas har bir bandi besh misradan iborat she‘riy janr sifatida shakllanadi, ya‘ni yagona muallif kechinmalari beshlik bandlardan iborat she‘r shaklida bayon etiladi. Shu sababli muxammas uslubi, timsollari, kechinmalar oqimi, badiiyat unsurlari, tili yagona shaxsga tegishli bir butun she‘r hisoblanadi. Muallif na mavzu, na vazn, na qofiya, na kompozitsion qurilishi, na uslub, na til jihatidan cheklangan bo‘lmaydi.

Taxmis atamasi ham arabcha - “**خمسة**” (“xamsa” – “besh”) so‘zining o‘zagidan yasalgan, ammo muxammasdan farqli o‘laroq, oldingi paragrafda ta‘kidanimizdek, “beshlik” emas, balki “beshlantirilgan”, “beshlangan” kabi tushunchalarni anglatadi. Shakliy tuzilishi, qofiyalanish tizimi, vazniga ko‘ra muxammasdan umuman farq qilmaydi. Taxmisda asos g‘azalning barcha xususiyatlari, jumladan vazni ham saqlanadi.

Taxmisni muxammasdan farqlovchi asosiy belgisi uning asosan ikki muallif tomonidan yozilishidir. To‘g‘ri ba‘zan bir shoirning o‘z g‘azaliga taxmis bog‘lashi hollari ham uchrab turadi, ular adabiyotshunoslikda muxammasi tab‘ii xud deb nomlanadi, lekin bunday taxmislar son jihatidan birinchi taxmis turlariga tenglasha olmaydi. Taxmis yozishda asos she‘rning (asosan g‘azal, ba‘zan mustazod, qasida

²² Хофиз Хоразмий. Девон. II китоб. – Тошкент: Ўзбекистон КП МК, 1981. – Б. 259.

²³ Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға // Ўзбек тили ва адабиёти – 2002, 2-сон. – Б. 84.

kabi) baytlari beshlantiriladi va beshlik shakliga keltiriladi, ya'ni bir janr zaminida boshqa yangi bir janr vujudga keladi. Demak, taxmisning mustaqil muxammasdan dastlabki farqi uni yaratish uchun tayyor zamin – janr, vazn, qofiya, mavzu, badiiy tasvir vositalari mavjud ekanligidir. Bu taxmis muallifi uchun muayyan bir tayyorgarlik ko'rish, asos she'r matni bilan tanishish, uni mazmunan boyitish va shaklan mukammallashtirish imkoniyatlarini aniqlash, foydalanish uchun zarur badiiy vositalar, she'riy unsurlarni belgilash imkonini beradi. Taxmis uchun mustazod, qasida kabi janrlar asos bo'lishiga ko'ra Sharq adabiyotida mustazod-taxmis, qasida-taxmis kabi janrlar ham mavjud.

Mustaqil muxammas va taxmisning yana bir jihatga e'tibor qaratish zarur. Muxammas shaklidagi she'riy janrlar garchi aruzda bo'lmasa-da, xalq og'zaki ijodi, barmoq vaznidagi zamonaviy she'riyatda ham keng ishlatiladi va ancha qadimiy tarixga ega. Uning dastlabki namunasi kim tomonidan va qachon yaratilganligi ham ma'lum emas. Taxmisning dastlabki namunalari haqida esa mazkur bob birinchi paragrafida ko'rganimizdek, ayrim ma'lumotlar mavjud.

Mustaqil muxammasning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri (ayrim holatlarni istisno qilganda) tazmin san'ati asosiga qurilmasligidir. Taxmislar tazminsiz vujudga kelmaydi, shuning uchun u tazmin-muxammas deb ham yuritiladi.

Ikkinchi bob “**Navoiy taxmisleri va poetik mahorati**” deb nomlangan. Bobning birinchi paragrafida “Shoirning o'z g'azallariga taxmisleri” haqida so'z yuritiladi.

Alisher Navoiy ijodida taxmislar uncha ko'p emas. Uning “Xazoyin ulmaoniy” kulliyotiga o'nta taxmisi kiritilgan bo'lib, ulardan uchtasi Lutfiy g'azaliga, qolgan yettitasi o'z g'azaliga bog'langan. Shuningdek, avval Husayniyga nisbat berilib, keyinchalik Navoiyniki ekanligi va qandaydir sabablarga ko'ra shoir kulliyotiga kiritilmay qolgan o'n birinchi taxmisi ham mavjud.²⁴ Bu taxmis Sulton Husayn Boyqaroning:

G'unchayi xandon borib, ko'nglumda qoldi xor-xor,
Tinmag'ur jonimg'a onsiz dunyada bori ne bor...

matla'li g'azaliga bog'langan. U “Mukammal asarlar to'plami”i yigirmanchi jildiga ilova sifatida kiritilgan²⁵. Taxmis uchun asos bo'lgan g'azal Husayniy devonidan o'rin olgan.²⁶ Demak, shoirning hozirgacha fanga ma'lum o'n bir taxmisi mavjud. Shulardan yettitasi o'z g'azaliga bog'langan. Adabiyotshunos D.Yusupova bunday holat adabiyotda kam uchraydi, deb ta'kidlaydi.²⁷ Uning asoschisi Alisher Navoiydir. Adabiy tanqidda shoir tahmisi haqida umumiy ma'lumotlar berilgan bo'lsa-da, uning she'riy xususiyatlari hozirgacha alohida va to'liq o'rganilmagan. Shoir taxmisleri haqida adabiyotshunoslikda umumiy ma'lumot berilgan bo'lsa-da, poetik xususiyatlari hali maxsus va to'liq o'rganilmagan. Ularni har taraflama tadqiq etish o'zbek mumtoz va zamonaviy

²⁴ Абдуғафуров Абдурашид. Буюк бешлик сабоқлари. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1995. – Б.б. 113-121.

²⁵ Алишер Навоий. МАТ. 20 жилдлик. www.ziyouz.com kutubxonasi 20-жилд. – В. 467.

²⁶ Хусайн Бойқаро. Жамолингдин кўзум равшан. – Тошкент: Гафур Ғулом, 1991. – Б. 6.

²⁷ Юсупова Д. Алишер Навоий тахмислари. – Шарқ юлдузи, 2013, 2-сон. – Б. 143.

adabiyotidagi taxmislar nazariyasini o'rganish, mavjud adabiy an'analarni davom ettirish va rivojlantirish hamda mazkur janrning yangidan yangi qirralarini kashf etishga qo'shilgan hissani teranroq anglash imkoniyatini beradi.

Navoiy taxmisleri tahlili jarayonida ularning shakliy jihati: obrazlar tizimi, lirik syujet qurilishi, kompozitsion tuzilishi, ishlatilgan badiiy nutq ko'rinishlari, vazni, qofiya turlari kabilar; shuningdek, mazmuniy jihati: ularda ilgari surilayotgan g'oya, har biri zamiriga singdirilgan muammo va mavzularga to'xtalib o'tildi.

Shoirning dastlabki "taxmisi tab'i xud"i quyidagi matla' bilan boshlanuvchi g'azaliga ("Badoe' ul-bidoya" 92-g'azal, "G'aroyib us-sig'ar" 72-g'azal) bog'langan:

Yoshurun dardimni zohir qildi afg'on oqibat,
Asrag'on rozimni yoydi seli mujgon oqibat...²⁸

G'azal aruzning "ramali musammani mahzuf" vaznida yozilgan. U to'qqiz baytdan iborat bo'lib, ular "afg'on", "mujgon", "qon", "giribon", "pinhon", "davron", "parishon", "uryon", "yakson", "imkon" so'zlari "murdaf qofiya"ning "ridfli muqayyad qofiya" turi yordamida o'zaro bog'langan. Qofiyadosh so'zlarning "raviy"si "n" undoshidan oldin "ridfi asliy" hisoblangan "o" unlisi keltirilgan²⁹. Har bir baytda "mumtoz she'r unsurlaridan biri" sifatida "she'rda ifodalanayotgan yetakchi fikrni takrorlash, kitobxon e'tiborini asosiy g'oyaga jalb etib, muallif g'oyaviy niyatini chuqurroq yetkazib berish"³⁰ uchun "oqibat" radifi ishlatilgan. Shoir fikr ta'sirchanligi, hissiy-ta'siriy bo'yoqdorligini oshirishda badiiy matnlarga xos so'z ma'nolarining ko'chishi, serqatlamligi kabi til hodisalardan ham unumli foydalangan va go'zal badiiy san'at namunalarini yaratishga muvaffaq bo'lgan. G'azal matnida mumtoz adabiyotga xos bo'lgan mubolag'ali tasvir ustuvorlik qiladi. Unda mumtoz she'riyatning an'anaviy *oshiq, yor* va bir bayt (oltinchi)da *o'zga (faqih)* timsoli ko'zga tashlanadi. Mazkur g'azalda ham shoir o'zining "...har mazmunda matla'e voqi' bo'lsa, aksar andog' bo'lg'aykim, maqta'g'acha surat xaysiyatidin muvofiq va ma'ni jonibidin mutobiq tushkay"³¹ ijodiy tamoyiliga amal qilgan va boshidan oxirigacha oshiqning ishqiy kechinmalarini aks ettirgan bir lirik syujet asosida voqeaband g'azal yaratgan.

G'azal matni til xususiyatlariga ko'ra ham rang-barangligi bilan kitobxon diqqatini tortadi. Fikrni kuchaytirish uchun zarur o'rinlarda "ohkim", "vahkim", "voyki" kabi hissiyot undovlari, "ey faqih", "ey Navoiy" kabi sodda undalmalardan ham unumli foydalanilgan. Shuningdek, shoir *tashbeh, mubolag'a, istiora, tashxis, tanosub, tajnis* kabi badiiy san'atlardan ham ustalik bilan foydalangan. Taxmisdagi garchand mubolag'ali tasvir ustun tursa-da, hayot haqiqatidan uzoqlashilmaydi. Inson botiniy olamida kechayotgan turfa evrilishlar real hayotiy lavhalar bilan juda ishonarli tarzda tasvirlanib, haqiqiy oshiq timsoli gavdalantiriladi va ishq haqiqiy yo'lida yor visolidan davlati boqiy tilagan solik

²⁸ Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Фафур Фулом, 2011. – Б. 93.

²⁹ Алишер Навоий Қомусий луғат. I жилд. – Тошкент: SHARQ, 2016. – Б. 366.

³⁰ Шу асар – Б. 445.

³¹ Алишер Навоий. МАТ. 1-жилд. Бадоеъ ул-бидоя. – Тошкент: Фан, 1987, www.ziyouz.com kutubxonasi. – Б. 22.

fano bo‘lishi kerak degan tasavvufiy g‘oya singdirilgan. “Inson mohiyat e‘tibori-la ishqi haqiqiyga loyiq bir borliq. Ishqi haqiqiy yo‘li – ko‘p olis va tahlikali yo‘l. Lekin solik nafsni yengib, ko‘zlagan makoniga vosil bo‘lgach, shubha, qo‘rquv, noqisliklardan poklanadi. Va hamma narsa, hamma joyda husni mutlaq siymosini ko‘radi. Shunda inson behuda fikrlar, uvoq hislar, aldoqchi istaklardan tamoman yiroqlashadi”.³² G‘azalning maqta‘si va unga bog‘langan taxmis misralariga ham aynan shu mazmun singdirilgan va u an‘anaga ko‘ra shoirning o‘ziga murojaati bilan yakunlangan:

Shahliq etgandin ne hosil faqr sirrin bilmayin,
Hech kim mulki baqo sultoni bo‘lg‘onmu ekin,
Foniyi mahz o‘lmayin sulton Abulg‘oziy bikin,
Ey Navoiy, davlati boqiy tilarsen vaslidin,
Oni kasb etmak fano bo‘lmay, ne imkon oqibat?

Mumtoz adabiyotda “faqr” tushunchasi ko‘pincha “fano” bilan yonma-yon keladi hamda komillikning yuksak maqomlaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. “Iloh nazdida o‘zini zarra, balki zarradan ham kam, deb hisoblash. Va shu martabada komillik rutbasini qozonish ham. Barcha narsalar, olam-u odam Allohga tegishli, insonning vujudi ham o‘ziniki emas, chunki u ham Yaratganning mulkidir. Faqrni ana shunday mazmunda anglagan odam tasavvuf mohiyatiga ham yetib boradi”³³. Demak, shoir: “Solik komillik sari intilar ekan fano maqomiga erishish uchun o‘zida faqrlikni ham tarbiyalashi zarur”, – degan xulosaga keladi. Zero, inson Yaratganga oliy darajadagi bandalikni bajo keltirish uchun barcha nafsoniy illatlardan xalos bo‘lishi kerak. Nafs istaklaridan batamom xalos bo‘lib, ruhiy poklikka va kamolotga intilish so‘fiyning eng ezgu tilagi.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida “Navoiyning boshqa shoirlar g‘azallariga taxmislari” o‘rganilgan.

Alisher Navoiy o‘z zamondoshlaridan Mavlono Lutfiyning uchta, Husayn Boyqaro (Husayniy)ning bitta g‘azaliga taxmis bog‘lagan. Navoiydek ulug‘ shoir ijodi uchun bu uncha ko‘p emas, lekin shoir taxmislari soni emas, ularning badiiyati, alohida she‘riy janr sifatida adabiyotimiz tarixida tutgan o‘rni, o‘z davri va o‘zidan keyingi davr adabiyotiga ta‘siri e‘tiborga molikdir. Navoiyning o‘zga shoirlar g‘azaliga taxmislaridan biri “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti “Badoe ul-vasat” devoni tarkibiga kiritilgan bo‘lib, Mavlono Lutfiyning:

Laylatul-me‘rojning sharhi sochi tobindadur,
Qoba qavsayn ittihodi qoshi mehrobindadur...

matla‘li g‘azaliga bog‘langan.³⁴ Ma‘lumotlarga qaraganda, shoir bu taxmisni yigirma besh yoshiga qadar yozgan.³⁵ Bu hodisa uning hali yosh bo‘lishiga qaramay taxmis bog‘lash qoidalarini puxta o‘zlashtirganidan dalolat beradi. Yosh shoir bu ishga kirishar ekan janr talablariga qat‘iy amal qiladi. “Avvalo, taxmisda g‘azalning (talmih, tashbihga va mubolag‘aga asoslangan ko‘tarinki) uslubi to‘liq

³² Хаққул Иброҳим. Тасаввуф ва шеърят. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991. – Б.б. 105-106.

³³ Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: MOVAROUNNAHR – O‘ZBEKISTON, 2009. – Б.б. 27-28.

³⁴ Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Фафур Фулом, 2011. – Б. 659.

³⁵ Юсупова Д. Алишер Навоий тахмислари // Шарк юлдузи, 2013, 2-сон. – Б. 143.

saqlangan. Qolaversa, manzur jamolining tavsifidan iborat bo‘lgan g‘azalning tub mohiyati kengroq sharhlanishi tufayli uning haqiqiy falsafiy zamini oydinlashgan. Natijada lirik qahramonning botiniy dunyosi – majoziy ishqni haqiqiy ishqqa eltuvchi ko‘prik sifatida e‘tirof etuvchi shaxsning ruhiy qiyofasi taxmisdan mantiqan asoslangan holda namoyon bo‘ladi”³⁶.

Mazkur g‘azal na‘t mazmunida bo‘lib, aruzning “ramali musammani maqsur (mahzuf)” (foilotun/ foilotun/ foilotun/ foilon) vaznida yozilgan. Lutfiy g‘azalida qo‘llangan qofiyadosh so‘zlarda mumtoz qofiyaning quyidagi unsurlari mavjud:

Qofiyadosh so‘zlar	Raviy	Vasl	Xuruji	Mazid	Noyira
to-b	<i>b</i>	(i) <i>n</i>	<i>d</i> (a)	<i>d</i> (ur)	(du) <i>r</i>
mexro-b	<i>b</i>	(i) <i>n</i>	<i>d</i> (a)	<i>d</i> (ur)	(du) <i>r</i>

Demak, g‘azalda mujarrad mutlaq qofiyaning *noyirali mujarrad mutlaq qofiya*³⁷ turidan foydalanilgan. Navoiy ham birinchi bandda shu turdagi qofiya – *nobindadur, bobindadur, xobindadur* kabilardan foydalanadi. Keyingi baytlarda esa qoida bo‘yicha dastlabki misraga qofiya qilib, uning boshqa turlarini ham qo‘llaydi. Taxmisdan na‘t mazmuniga ham to‘la amal qiladi va talabga ko‘ra uni yanada kengaytirishga, lirik qahramon botiniy va zohiriy olami tavsifiga oid yangidan yangi tasvirlarni kiritib, ma‘naviy qiyofasini yanada teranroq ochib berishga erishadi.

Lutfiy g‘azal matla‘sining birinchi misrasida *talmeh* san‘atidan foydalanib, Islom tarixidagi mashhur hodisa – “me‘roj” voqeasiga ishora qiladi va uni payg‘ambar alayhissalom sochi orqali sharhlaydi.

Matla‘ning “Qoba qavsayn ittihodi qoshi mehrobindadur...” misrasi *iqtibos* va *talmeh* san‘atlariga asoslangan tasvir bilan boshlanadi. Unda ishlatilgan “qoba qovsayn” iborasi “Qur‘on”dan olingan va “qoba” – “yaqinlashdi”, “qovsayn” – “ikki kamon miqdoricha” lug‘aviy ma‘nosini bildirib, ikki ob‘ekt oralig‘idagi masofa tushunchasini anglatadi. Bu ibora “Qur‘on”dagi: “Fa kanat qoba qovsayni av adna” (“Najm”. 9) oyatida keltirilgan bo‘lib, tarjimada “Bas, (Muhammadga) ikki kamon oralig‘idek yoki (undan ham) yaqinroq bo‘ldi”³⁸ mazmunini anglatadi. Tafsirlarda bu oyatda payg‘ambar alayhissalom va Jabroil alayhissalom orasidagi uchrashuv haqida ekanligi aytiladi: “Ya‘ni Jabroil farishta yana ham pastroqqa tushishda davom etib, Payg‘ambar alayhissalomga ikki kamon miqdoricha, balki undan ham yaqinroqqa keldilar. Bunday yaqinlik natijasida vahiyini yetkazish osonlashgan”³⁹.

Taxmisdan lirik qahramon ta‘rifi yanada teranlashadi. Uning birinchi misrasi – “Sharbati «yuhylil-izom» erni mayi nobindadur...” zamiriga singdirib yuborilgan ma‘nolar serqatlamligi bilan diqqatni jalb etadi. Buning uchun misrada qo‘llanilgan badiiy san‘atlar bilan tanishib chiqish zarur. Undagi sharbati “yuhylil izom” birikmasi metaforik xususiyatga ega bo‘lib, “Qur‘on”ning bir surasi yoki

³⁶ Исҳоқов Ёқубжон. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: O‘zbekiston, 2014. – Б. 127.

³⁷ Алишер Навоий Қомусий луғат. I жилд. – Тошкент: SHARQ, 2016. – Б. 355.

³⁸ Шайх Абдулазиз Мансур. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. – Тошкент: ТИУ НМБ, 2016. – Б. 526.

³⁹ Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири ҳилол. 5-жузв. – Тошкент: ШАРҚ, 2007. – Б. 629.

umuman “Qur‘on” tushunchasini anglatsa, mayi nob – bebaho so‘zlar, bu o‘rinda ilohiy kalom ma‘nosida qo‘llangan. Shoir “Qur‘on”dan iqtibos keltirish bilan bir paytda Islom ta‘limotidagi iymon tushunchasining eng muhim qirralardan biri – o‘limdan keyin qayta tirilishga ishora qilib, talmeh san‘atidan ham mohirona foydalanmoqda. Misra mazmuni va undagi talmeh san‘ati mohiyatini anglash uchun arabcha «yuhyil-izom» iborasi talqinini ham bilish kerak. Bu ibora “Qur‘on”dagi “Vazorobalana masalav va nasiya xolqohu qola may *yuhyil izoma* va hiya romim” (“Yosin” 78) oyatida uchraydi. Bu oyat: “U Bizga “Chirib ketgan suyaklarni kim ham tiriltira olur?” – deb naql keltirdi-yu, (ammo) o‘zining (qanday) yaratilganini unutib qo‘ydi” deb tarjima qilinadi⁴⁰. Tafsir kitoblaridan birida esa bu gapni payg‘ambar alayhissalomga mushriklarning kattasi Ubay ibn Xalaf aytganligi ta‘kidlanadi.⁴¹ Misrada talmeh san‘ati orqali shu tarixiy voqeaga ishora borligi ko‘zga yaqqol tashlanib turibdi.

